Saidjonov Akmaldin Adhamjon o‘g‘li, Qo‘qon davlat unversiteti assistent-o‘qituvchisi

Сайджонов Акмалдин Адхамжон угли, ассистент-преподаватель Кокандского государственного университета.

Saidjonov Akmaldin Adhamjon o‘g‘li, Assistant Lecturer at Kokand State University.

IX–X ASRLARDA SOMONIYLAR DAVLATIDA QIROAT ILMINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ НАУКИ КИРААТА В ГОСУДАРСТВЕ САМАНИДОВ В IX–X ВЕКАХ

STAGES OF THE DEVELOPMENT OF THE SCIENCE OF QIRA’AT IN THE SAMANID STATE IN THE IXTH–XTH CENTURIES

Annotatsiya: Mazkur maqolada IX–X asrlarda Somoniylar davlati hududida qiroat ilmining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tahlil qilingan. Tadqiqotda Naysobur, Samarqand va Buxoro shaharlarining qiroat ilmi markazlari sifatidagi o‘rni, ushbu davrda faoliyat yuritgan yirik qiroat olimlarining ilmiy merosi hamda qiroat maktablarining taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi yoritilgan. Shuningdek, Abu Bakr ibn Mujohid maktabining ta’siri, Ibn Mehron tomonidan “ashara qiroat” tizimining joriy etilishi va qiroat ilmining islom olamidagi keyingi rivojiga ko‘rsatgan ta’siri manbalar asosida tahlil qilingan.

Аннотация: В данной статье анализируются этапы становления и развития науки кираата на территории государства Саманидов в IX–X веках. Особое внимание уделяется роли Нишапура, Самарканда и Бухары как крупнейших центров изучения кираата, научному наследию известных ученых-кираатоведов и их вкладу в развитие данной отрасли исламских наук. Также рассматривается влияние школы Абу Бакра ибн Муджахида, внедрение системы «десяти кираатов» (ашара) Ибн Михраном и её значение для дальнейшего развития науки кираата в исламском мире.

Abstract: This article examines the stages of formation and development of the science of Qira’at within the Samanid state during the 9th–10th centuries. The study highlights the role of Nishapur, Samarkand, and Bukhara as major centers of Qira’at studies, the scholarly legacy of prominent Qira’at scholars, and their contributions to the advancement of this discipline. The article also analyzes the influence of the school of Abu Bakr Ibn Mujahid, the introduction of the “Ten Qira’at” (Ashara) system by Ibn Mihran, and its impact on the subsequent development of Qira’at studies throughout the Islamic world.

Kalit so‘zlar: Somoniylar davlati, qiroat ilmi, Naysobur, Samarqand, Buxoro, Ibn Mehron, Abu Bakr ibn Mujohid, ashara qiroat, Qur’on tilovati, islom ilmlari.

Ключевые слова: государство Саманидов, наука кираата, Нишапур, Самарканд, Бухара, Ибн Михран, Абу Бакр ибн Муджахид, ашара кираат, чтение Корана, исламские науки.

Keywords: Samanid State, Qira’at studies, Nishapur, Samarkand, Bukhara, Ibn Mihran, Abu Bakr Ibn Mujahid, Ten Qira’at, Qur’anic recitation, Islamic sciences.

IX–X asrlar Markaziy Osiyo va Xuroson tarixida siyosiy barqarorlik, iqtisodiy yuksalish hamda ilm-fan taraqqiyoti bilan ajralib turadigan davrlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, Somoniylar davlati hukmronligi yillarida islom madaniyati va diniy ilmlar rivoji uchun qulay ilmiy-ma’naviy muhit shakllandi. Mazkur davrda Buxoro, Samarqand, Naysobur, Marv va Balx kabi yirik shaharlarda madrasalar, kutubxonalar va ilmiy majlislar faoliyat yuritib, nafaqat Movarounnahr, balki butun islom olamidan olimlarni o‘ziga jalb etdi. Natijada hadis, tafsir, fiqh, kalom va qiroat kabi islomiy fanlar taraqqiyotining yangi bosqichi yuzaga keldi.

Qur’oni karim musulmonlar hayotining asosiy manbai sifatida diniy, ma’naviy va huquqiy munosabatlarning markazida turar edi. Shu sababli uning to‘g‘ri tilovat qilinishi, qiroat sanadlarining saqlanishi va avloddan avlodga

ishonchli ravishda yetkazilishi musulmon jamiyatining eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib qoldi. Bu jarayonda qiroat ilmi Qur’on oyatlarini talaffuz qilish usullari, ularning rivoyat yo‘llari hamda qiroat imomlarining ilmiy merosini o‘rganadigan mustaqil fan sifatida shakllandi.

Somoniylar davrida qiroat ilmi nafaqat diniy ta’limning muhim tarkibiy qismi, balki ilmiy faoliyatning alohida yo‘nalishiga aylandi. Qorilar, muqriylar va qiroat olimlari jamiyatda yuksak e’tibor va hurmatga sazovor bo‘lib, hukmdorlar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi. Ayniqsa, Naysobur shahri qiroat ilmining yirik markaziga aylangan bo‘lsa, Samarqand va Buxoro shaharlari ham qiroat ta’limining muhim o‘choqlari sifatida faoliyat yuritdi. Ushbu ilmiy markazlarda faoliyat olib borgan olimlar tomonidan qiroatga oid ko‘plab asarlar yaratilgan, qiroat sanadlari tizimlashtirilgan va Qur’on tilovati an’analari yanada takomillashtirilgan.

Xususan, Abu Homid Surxakiy, Ahmad Sarrom, Abu Bakr Junaydiy, Ibn al-Imom, Hajjojiy Naysoburiy, Tiroziy, Zohir Saraxsiy va Abu Bakr Ahmad ibn Husayn ibn Mehron kabi olimlarning faoliyati Somoniylar davrida qiroat ilmining yuksalishida muhim o‘rin tutdi. Ayniqsa, Ibn Mehron tomonidan “sab’a qiroat” an’anasidan “ashara qiroat” tizimiga o‘tilishi qiroat ilmi taraqqiyotida yangi bosqichni boshlab berdi. Bu esa Somoniylar davrida shakllangan qiroat maktablarining keyingi asrlarda butun islom olamiga ta’sir ko‘rsatishiga zamin yaratdi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi IX–X asrlarda Somoniylar davlati hududida qiroat ilmining rivojlanish bosqichlarini, qiroat markazlarining faoliyatini hamda ushbu sohada faoliyat olib borgan olimlarning ilmiy merosini manbalar asosida tahlil qilishdan iboratdir. Shuningdek, Somoniylar davrida shakllangan qiroat maktablarining islom sivilizatsiyasi va Qur’on ilmlari taraqqiyotidagi o‘rnini yoritish ham tadqiqotning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

“Qiroat” (القراءة) ilmi Qur’on oyatlari tilovati bilan bog‘liqligi jihatidan alohida ahamiyatga ega. Qur’on matnlari musulmonlarning hayotiy dasturamali

bo‘lib, uning tilovati ham barchaga aziz hisoblangan. Somoniylar davrida ba’zi shaharlarda, masalan, Naysoburda zodagonlar va oqsoqollar har juma kuni ertalab yig‘ilishib, quyosh chiqqunigacha Qur’on tilovat qilishgan.

Qur’ondagi tadabbur (o‘lchov) va uning ma’nosini anglash arab tilini o‘rganishni, tajvid va tartil qoidalarini bilishni talab qiladi. Shu sababli Qur’onni o‘qishda qiroat va tafsir ilmi ikkita asosiy tarmoqqa aylangan. Somoniylar sulolasi davrida Buxoro va Samarqand kabi shaharlarda qiroat darslari o‘qitilgan, ammo bu ilm sohasida Naysobur yetakchi sanalgan.

Somoniylar davri qiroat olimlaridan Abu Homid Ahmad ibn Abdurahmon Surxakiy hanafiylik faqihlaridan bo‘lib, u Naysoburning Surxak nomli qishlog‘ida tug‘ilgan. Abdukarim Sam’oniyga ko‘ra, Ahmad Surxakiy qiroat ilmiga bag‘ishlab, “al-Qiroat” (القراءة) nomli asar yozgan, shuningdek, u hifzga oid kitoblar muallifi ham sanaladi. U 316/928-yili vafot etgan.

Abu Homid Ahmad ibn Ismoil ibn Jibril Nayoburiy Muqriy Sarrom katta qorilardan hisoblanib, u Hamdun ibn Abu Sahl Muqriy huzurida qiroat ilmini o‘rgangan. U dastlab Naysoburdagi Murabba’a masjidida (مسجد المربعة), ko‘zi ojiz bo‘lib qolganidan so‘ng esa uyida qiroat bilan shug‘ullangan. U 333/944-yili 82 yoshida vafot etgan.

Hamdun Muqriyning yana bir shogirdi, Ahmad Sarromning hamrohi naysoburiylik Abu Bakr Muhammad ibn Abdus ibn Ahmad Junaydiy taniqli mufassir va qiroat ilmi bilimdonlaridan bo‘lib, Hokim Naysoburiyning ta’kidlashicha, u Qur’onni tilovat qilishda va uning ma’nosini tushunishda Xurosonda tengsiz bo‘lgan. U 338/949-yili vafot etgan.

“Ibn al-Imom” nomi bilan tanilgan Abu Bakr Ahmad ibn Abbos ibn Ubaydulloh (355/966-yili v.e.) Abu Bakr ibn Mujohid va Ahmad ibn Sahl ibn Ushnoniyning ko‘zga ko‘ringan shogirdlaridan bo‘lib, u 335/946-yili Bag‘doddan Naysoburga ko‘chib kelgan va o‘sha yerda yashagan. U biroz muddat Marv, Buxoro va Farg‘onada ham bo‘lgan. Amir Nuh ibn Nasr unga

Qur’onni “xatm” qildirib, hadiya sifatida mol-mulk bergan. Shundan so‘ng Ibn al-Imom avval Jurjonga, keyin esa Rayga borgan va o‘sha yerda vafot etgan.

Abu Bakr ibn Mujohidning yana bir shogirdi Abulhusayn Muhammad ibn Muhammad ibn Ya’qub Hajjojiy Naysoburiy bo‘lib, u o‘z davrida qorilar va muhaddislar yuragi (صَدْرُ المقرئينَ وَالمُحَدِّثِيْنَ) sifatida ta’riflangan. Abu Ali Hofiz, Abu Bakr ibn Muqriy, Abdulloh ibn Manda, Abu Abdulloh Hokim, Abu Hozim Abdaviy va Abu Bakr Barqoniy kabi kishilar Hajjojiydan hadislar rivoyat qilishgan. Hokim Naysoburiyga ko‘ra, Hajjojiy qarigan chog‘ida hadis rivoyat qilishdan saqlangan. U 368/979-yili 83 yoshida vafot etgan.

Abu Bakr Ahmad ibn Husayn ibn Mehron (381/991-yili v.e.) qiroat ilmining Naysoburdagi yana bir mashhur vakili bo‘lib, u Samarqandda Ibn Kasir qiroati roviylari Abu Ali Muhammad ibn Ahmad ibn Homid Saffor va Abu Bakr Muhammad ibn Muhammad ibn Ahmad Tamimiy Buxoriylardan qiroat ilmini o‘rgangan, so‘ngra qiroat sanadlarini o‘rganish uchun Iroq va Suriyaga safar qilgan. Damashq va Bag‘dodda Ibn Axram, Abulhusayn Ibn Buyon, Abu Bakr Naqqosh va Abu Iso Bakkor kabi ustozlardan tahsil oladi. Ibn Mehron Naysoburga qaytgach, umrini qiroat ilmini o‘rganish va o‘qitishga bag‘ishladi. U Abulvafo Mahdiy ibn Tarora Qoiniy, Abulqosim Ali ibn Ahmadiy Bustiy, Abu Usmon Said ibn Muhammad Xayriy va Abu Said Ahmad ibn Ibrohim Muqriy kabi shogirdlarni yetishtirdi. Ibn Mehronni mashhur qilgan narsa qiroat ilmi bilan bog‘liqdir. Dastlab, Ibn Mujohid Abu Bakr Ahmad ibn Musoning (324/936-yili v.e.) 300/913-yili o‘qigan “sab’iy” (etti) qiroati alohida ahamiyatga ega bo‘lgan hamda bu yarim asrga yaqin qiroat olamida yetakchilik qilgan. Keyin esa Xurosonda birinchi marta Ibn Mehron tomonidan qilingan “ashara (o‘n) qiroat” uning o‘rnini egallagan. Ibn Mehronning 355/966-yili yozgan “ash-Shomil” (كتاب الشامل) asari “o‘n qiroat”ga oid bo‘lib, keyinchalik olimning o‘zi mazkur asarni izohlash uchun “Mabsut” (كتاب المبسوط) asarini yozgan. Ibn Mehronning “o‘n qiroat”ga oid yana bir muhim asari “al-G‘oya” (كتاب الغاية) bo‘lib, u ayniqsa, o‘zidan keyingi davrlarda keng tarqalgan. Bu

kitobning roviylaridan biri muallifning nevarasi Nasr ibn Bakr ibn Ahmad va yana biri Abu Sa’d Ahmad ibn Ibrohimdir. Ibn Mehronning shogirdi Abulhasan Ali ibn Muhammad ibn Ibrohim Zaririy Kuhandiziy “al-G‘oya” asarining tadqiqi va izohiga bag‘ishlab, “Ilal al-qiroat al-murattaba fi-l-Kitob al-g‘oya” nomli katta asarni yozgan. Shuningdek, Ibn Mehron “Kitob qiroat Abi Amr”, “Kitob al-g‘aroyib al-qiroot”, “Kitob vuquf al-Qur’on”, “Kitob al-infirod”, “Kitob sharh al-mu’jam”, “Kitob sharh at-tahqiq”, “Kitob ruus al-oyot”, “Kitob qiroat Abdulloh ibn Amr”, “Kitob ilal Kitob al-g‘oya”, “Kitob oyot al-Qur’on” kabi asarlar muallifi hamdir. Uning asarlari qiroat darsligi manbasi sifatida Xurosondan tashqari, asrlar davomida Qazvin, Hamadon, Kirmon, Iroq, Suriya va Misrda ham o‘qitib kelingan.

Ibn Mujohidning shogirdlaridan Tiroziy nomi bilan mashhur bo‘lgan Abu Bakr Muhammad ibn Muhammad ibn Ahmad al-Bag‘dodiy (385/995-yili v.e.) ham somoniylar davri qiroat ilmida alohida o‘ringa ega bo‘lib, u qiroatdan tashqari grammatika, she’r, adabiyot va hadis ilmidan ham yaxshi xabardor bo‘lgan. Tiroziy 330/941-yili Bag‘doddan chiqib, 332/943-yilda Naysoburga kelib o‘rnashgan. Tiroziy qiroat bo‘yicha shogirdlar tayyorlashga katta e’tibor bergan. Ular orasida samarqandlik shayx Abulfath Nasr ibn Abu Nasr Ahmad Haddodiy, xurosonlik muhaqqiq, qiroat bo‘yicha bir nechta asarlar muallifi Abu Nasr Mansur ibn Ahmad Iroqiy va naysoburik qori, qiroat kitoblari muallifi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ali ibn Muhammad Xabboziyni (372–449/982–1058) ko‘rsatish mumkin.

Ibn Mujohidning saraxslik shogirdlaridan shafe’iylik faqihi, muqriy va muhaddis Abu Ali Zohir ibn Ahmad ibn Muhammad ibn Iso Saraxsiy ham somoniylar davri qiroat olimlaridan biri bo‘lib, Abdulvahhob Subkiy o‘zining “Tabaqot ash-shofe’iya al-kubro” nomli asarida uni “imomlar imomi” (إِمَام من الْأَئِمَّة) deb ta’riflagan. Zohir Saraxsiy fiqh ilmini Abu Is’hoq Marvaziydan, adab darslarini Abu Bakr ibn Anboriydan o‘rgangan. Shuningdek, u Abu Labid Muhammad ibn Idris Somiy, Abulqosim Bag‘aviy, Yahyo ibn So’id, Mu’mal

ibn Hasan Mosarjisiy kabi insonlardan ilm o‘rgangan, Abu Bakr ibn Mujohidga Qur’onni tilovat qilib bergan. Abu Usmon Ismoil Sobuniy, Abu Usmon Sa’id ibn Muhammad Buhayriylar esa Zohir Saraxsiydan ta’lim olishgan. U 389/999-yili 96 yoshida vafot etgan.

Somoniylar davrida Samarqandda qiroat o‘rgatuvchi olimlar orasida Ahmad ibn Homid ibn Tohir Nasafiy mashhur bo‘lib, u samarqandlik Abulfazl Muhammad ibn Is’hoq Attordan “yetti qiroat”ni o‘rgangan. Uning shogirdlari sifatida Abu Tammom ibn Muhammad ibn Abdulloh Nasafiy (390/1000-yili v.e.) va Nasr ibn Abdulaziz Nasafiyni (422/1031-yili v.e.) ko‘rsatish mumkin.

Haddodiy nomi bilan tanilgan Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad ibn Ahmad Samarqandiy (400/1010-yildan keyin v.e.) ushbu shaharda “qorilar ulug‘i” (شيخ القراء) sifatida ko‘rilgan. U qiroatga oid “al-G‘uniyya” (كتاب الغنية) asarini yozgan. Uning o‘g‘li Nasr ibn Ahmad ham Samarqandda qiroatdan dars bergan.

IX–X asrlarda Somoniylar davlati islom ilmlari, xususan, qiroat ilmining taraqqiyoti uchun qulay ilmiy va ma’naviy muhit yaratgan muhim siyosiy markazlardan biri bo‘ldi. Davlat tomonidan ilm-fan ahliga ko‘rsatilgan e’tibor natijasida Buxoro, Samarqand va ayniqsa Naysobur shaharlari qiroat ilmining yirik markazlariga aylandi. Ushbu shaharlarda faoliyat yuritgan olimlar Qur’on qiroatini o‘rganish, o‘qitish va rivojlantirish borasida muhim ilmiy meros qoldirdilar.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Somoniylar davrida qiroat ilmi dastlab Qur’on tilovati va qiroat sanadlarini saqlash asosida rivojlangan bo‘lsa, keyinchalik mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllanib, qiroat nazariyasi va metodologiyasiga oid asarlar yaratilgan. Abu Homid Surxakiy, Ahmad Sarrom, Abu Bakr Junaydiy, Ibn al-Imom, Hajjojiy Naysoburiy, Tiroziy va Zohir Saraxsiy kabi olimlarning faoliyati qiroat ilmining taraqqiyotida muhim o‘rin tutgan.

Ayniqsa, Abu Bakr Ahmad ibn Husayn ibn Mehron tomonidan “ashara qiroat” tizimining ilmiy asosda rivojlantirilishi qiroat ilmi tarixidagi muhim burilish nuqtasi bo‘ldi. Uning “ash-Shomil”, “al-Mabsut” va “al-G‘oya” kabi asarlari nafaqat Xuroson va Movarounnahrda, balki keyingi asrlarda Iroq, Shom va Misr ilmiy muhitida ham keng foydalanilgan. Bu esa Somoniylar davrida yaratilgan qiroat merosining xalqaro miqyosdagi ahamiyatini ko‘rsatadi.

Shuningdek, tadqiqot davomida Somoniylar davrida qiroat ilmi hadis, tafsir, fiqh va arab tili ilmlari bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanganligi aniqlandi. Bu holat qiroat ilmining faqat Qur’on tilovati bilan cheklanib qolmay, islomiy ilmlar tizimining muhim tarkibiy qismiga aylanganini ko‘rsatadi. Umuman olganda, Somoniylar davri qiroat ilmi tarixida yuksalish bosqichi sifatida alohida ahamiyatga ega bo‘lib, bu davrda shakllangan ilmiy maktablar va yaratilgan asarlar keyingi asrlarda Qur’on ilmlarining rivojlanishiga mustahkam zamin yaratgan hamda islom sivilizatsiyasining ma’naviy-madaniy taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abu Bakr Muhammad ibn Ja’far Narshaxiy. Buxoro tarixi. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1966.

2. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. I jild. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1968.

3. Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. V jild. Qonuni Mas’udiy. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1973.

4. Abdulkarim ibn Muhammad ibn Mansur at-Tamimiy as-Sam’oniy. Al-Ansob. – Haydarobod: Majlisu doirat al-maorif al-Usmoniya, 1980. – J. 11.

5. Ahmad ibn Muhammad Ibn Faqih. Al-Buldon. – Bayrut: Olam al-kutub, 1996.

6. Ibn Havqal. Kitob surat al-ard. Movarounnahr. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2011.

7. Muhammad ibn Ahmad al-Muqaddasiy. Ahsan at-taqosim fi ma’rifat al-aqolim. – Leiden: Brill, 1906.

8. Muhammad ibn Abdulkarim ash-Shahristoniy. Al-Milal va-n-nihal. – Bayrut, 1981.

9. Muhammad ibn Abdulloh al-Hokim an-Naysoburiy. Talxis Tarixi Naysobur. – Tehron: Kitobxonai Ibn Sino, 1919.

10. Muhammad ibn Is’hoq Ibn Nadim. Al-Fihrist. – Tehron, 1346 h.sh.

11. Muhammad ibn Jarir at-Tabariy. Tarix al-umam va-l-muluk. – Bayrut, 1967. – J. 3.

12. Abulqosim Ubaydulloh ibn Abdulloh Ibn Xurdodbeh. Al-Masolik va-l-mamolik. – Leiden: Brill, 1889.

14. Monnot, G. “Sumaniyya” // Encyclopaedia of Islam. – Leiden: Brill, 1997.

15. Bartold, V.V. Turkiston mo‘g‘ullar istilosi davrida. – Toshkent: Sharq, 1995.

16. Karimov U.U. Markaziy Osiyoda diniy bag‘rikenglik an’analari tarixi. – Toshkent: Akademnashr, 2021.